


Amaliyotda jabrlanuvchiga tegishli bo‘lgan telefon, uy-ro‘zg‘or anjomlari, bo‘yanish vositalari va transportlarning shikastlanishi ko‘p uchraydi. Garchi biz bu harakatlarni iqtisodiy zo‘ravonlik shakli sifatida e’tirof etayotgan bo‘lsak-da, ko‘p hollarda ushbu harakatdan zo‘ravon jabrlanuvchiga ruhiy bosim o‘tkazish usuli sifatida foydalanadi.

Oilaviy (maishiy)

ZO‘RAVONLIK

jinoyatining obyektiv tomoni:

muammo va yechimlar

Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasiga koʻra, jazo qoʻllash tahdidi bilan taqiqlangan oilaviy (maishiy) zoʻravonlik obyektiv tomondan bir qator harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bu harakatlarga quyidagilar kiradi:

1. Mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga toʻsqinlik qilish (Jinoyat kodeksi 126[1]-modda birinchi qismi).

Mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqlarni amalga oshirishga toʻsqinlik qilish ayolning Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangan mazkur huquqlarini amalga oshirishga ruxsat bermaslik, taqiqlashni anglatadi.

Mulk huquqlari deganda aksiya sotib olish, mol-mulkini erkin tasarruf etish, oyligi yoki daromadini mustaqil sarflash va boshqa bir qator huquqlar, sogʻliqni saqlashga oid huquqlar deganda tibbiy yordam soʻrab murojaat qilish, tibbiy xizmatdan foydalanish kabi ishlarni koʻrsatish mumkin. Mehnatga oid huquqlar esa shaxsning erkin kasb tanlash va mehnat qilish huquqlarini oʻz ichiga oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi 2019-yil 2-sentabrda qabul qilgan "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi 561-qonun[1] zoʻravonlikning qamrovini kengaytirgan va bu harakatlarni Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasida jazo bilan taqiqlagan.

Ushbu qonunda zoʻravonlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy shakllari aniq belgilangan. Masalan, jinsiy zoʻravonlikka jinsiy erkinlikka va daxlsizlikka tajovuz qilish, qizlarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish, zoʻrlik ishlatish yoki tahdid qilish kabi holatlar kiradi. Jismoniy zoʻravonlikka tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayot uchun xavfli holatlarda yordam koʻrsatmaslik, boshqa zoʻravonlik harakatlari va jismoniy ta'sir oʻtkazish bilan tahdid qilish kirishi mumkin. Iqtisodiy zoʻravonlikka ish joylarida, turmushda va boshqa joylarda xotin-qizlarning mulk huquqi, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlarini cheklash kiritiladi. Ruhiy zoʻravonlik esa tahdid qilish, tuhmat qilish, sha'nini kamsitish, reproduktiv sohada nazorat qilish, xavotirlar tugʻdirish va ruhiy sogʻlikka zarar yetkazishdan iborat boʻladi. Shuningdek, "ta'qib etish" ham ushbu qonun bilan taqiqlangan.

Shuningdek, bizning jamiyatda ayollarning mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqlarini amalga oshirishga toʻsqinlik qilish holatlari juda koʻp uchraydi. Xususan, turmush oʻrtogʻining oʻqishi, ishlashi, oʻz mulkini tasarruf etishi (masalan, shaxsiy transportidan foydalanish)ga toʻsqinlik qilish holatlari koʻp kuzatiladi. Jinoyat qonuni esa ushbu harakatlarni taqiqlaydi, chunki ular ayol shaxsining rivojlanishini toʻsib qoʻyishi, ayol va erkakning teng huquqliligini buzishi mumkin.



[1] ЎРҚ-561-сон 02.09.2019. Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида.

Ushbu harakatlarni Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasida koʻrsatilgan harakatlar bilan qiyosiy taqqoslashda, ba'zi farqlar va turli yondashuvlar mavjud. Badaniga shikast yetkazish bilan bogʻliq jinoyatlar uchun maxsus javobgarlik belgilanganligi jihatidan Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasi aniqroq belgilaydi. "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonunda "tan jarohatlari yetkazish" oilaviy zoʻravonlik shakli sifatida belgilanganligini toʻgʻri yondashuv sifatida baholash mumkin.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 112-moddasi ("Oʻldirish yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish"), 117-moddasi ("Xavf ostida qoldirish"), 118-moddasi ("Nomusga tegish"), 119-moddasi ("Jinsiy ehtiyojni zoʻrlik ishlatib gʻayritabiiy usulda qondirish"), 121-moddasi ("Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish"), 128-moddasi ("Oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish"), 128[1]-moddasi ("Oʻn olti yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan shaxs bilan moddiy qiymatliklar berish yoki mulkiy yoki boshqa tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish"), 129-moddasi ("Oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish") jinoiy xatti-harakatlar ham oilaviy zoʻravonlik shakli sifatida qabul qilingan.

Biroq sabab nima ekaniga qaramay, qonun chiqaruvchi faqatgina "tan jarohatlari yetkazish" bilan bogʻliq jinoyatlarni oilaviy zoʻravonlik sifatida tan olgan. Yuqorida aytib oʻtilgan boshqa jinoyatlar "xotin (er), sobiq xotin (sobiq er), bir roʻzgʻor asosida birgalikda yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega boʻlgan shaxs"ga nisbatan sodir etishni oilaviy zoʻravonlik sifatida qabul qilmaydi. Bu esa Jinoyat kodeksidan kelib chiqmagan holda turlicha yondashuvlardan foydalanilganini koʻrsatadi.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonunda va Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasi oʻrtasidagi yana bir tafovut shundaki, unda nazarda tutilgan ayrim xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan boʻlsa, boshqa bir qismi uchun bunday javobgarlik nazarda tutilmagan. Bu holat qonun chiqaruvchi ushbu masalaga qanday yondashuv asosida oilaviy zoʻravonlikning ayrim harakatlarini jinoyat deb tan olgani, boshqalarini esa jinoyat deb tan olmaganini aniqlashga qaratilgan oʻrinli savollarni keltirib chiqaradi.

Masalan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonunda iqtisodiy zoʻravonlikka "xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zoʻravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishiga boʻlgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik)" sifatida ta'rif berilgan. Bu holda Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasida "mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga toʻsqinlik qilish" uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Biroq "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonundagi iqtisodiy zoʻravonlik shakli sifatida "normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga boʻlgan huquqini cheklash" uchun javobgarlik belgilangan emas. Vaholanki, ushbu huquq Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasi bilan himoyaga olingan "mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqlar" bilan teng darajada himoyaga olinishga loyiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasidan kelib chiqib, "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonunning 3-moddasidagi "mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklash" degan soʻzlarni "normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanish, mulk, ta'lim olish, sogʻliqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga toʻsqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish" degan soʻzlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

Qonunda zoʻravonlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy shakllari aniq belgilangan. Masalan, jinsiy zoʻravonlikka jinsiy erkinlikka va daxlsizlikka tajovuz qilish, qizlarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish, zoʻrlik ishlatish yoki tahdid qilish kabi holatlar kiradi.



2. Mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish (Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasi birinchi qismi)

Mol-mulkka va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish deganda oilaviy zoʻravonlik jabrlanuvchisiga tegishli boʻlgan mol-mulkka va shaxsiy ashyolarni qasddan ishdan chiqarish, sindirish yoki ishga yaroqsiz holatga keltirish tushuniladi.

Amaliyotda jabrlanuvchiga tegishli boʻlgan telefon, uy-roʻzgʻor anjomlari, boʻyanish vositalari va transportning shikastlanishi koʻp uchraydi. Garchi biz bu xatti-harakatlarni iqtisodiy zoʻravonlik shakli sifatida e'tirof etayotgan boʻlsak-da, koʻp hollarda ushbu harakatdan zoʻravon jabrlanuvchiga ruhiy bosim oʻtkazish usuli sifatida foydalanadi.

Shuningdek, ayrim hollarda zoʻravon jabrlanuvchining mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga emas, balki jabrlanuvchiga tegishli boʻlgan uy hayvonlariga, masalan, it, mushuk va boshqa hayvonlarga nisbatan zoʻravonlik ishlatilishi ham kuzatiladi. Bu holat ham oilaviy zoʻravonlik sifatida baholanishi lozim. Shunday ekan, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasining "mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga" degan soʻzlarini "mol-mulkiga, shaxsiy ashyolariga va uy hayvonlariga" deb almashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Sogʻligʻining yomonlashuviga olib kelgan tarzda sha'n va qadr-qimmatni tahqirlash, qoʻrqitish yoki yaqin qarindoshlaridan ajratib qoʻyish (Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasi birinchi qismi)

"Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonunda ruhiy zoʻravonlik "xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini va qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zoʻravonlik shakli" sifatida ta'riflangan. Bu, shu jumladan, reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlanuvchida oʻz xavfsizligi uchun xavotir uygʻotgan yoki oʻzini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sogʻligʻiga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik)ni oʻz ichiga oladi.

Biroq Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasida "sogʻliqning yomonlashuviga olib kelgan tarzda sha'n va qadr-qimmatni tahqirlash, ularni qoʻrqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qoʻyish" kabi ruhiy zoʻravonlik uchun javobgarlik belgilangan.

Guvohi boʻlganimizdek, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi qonundagi ruhiy zoʻravonlik oʻrtasidagi farq shu bilan bogʻliqki, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasida ruhiy zoʻravonlik natijasida "sogʻligʻining yomonlashuvi" tarzidagi jismoniy oqibat kelib chiqadi. Lekin

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda ruhiy zo‘ravonlik natijasida “o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetgan” kabi ruhiy, nomoddiy oqibat nazarda tutilgan.

Bu tafovutni bartaraf etish zarurati tug‘iladi. Fikrimizcha, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasidan kelib chiqib, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasidagi “ruhiy zo‘ravonlik” tushunchasiga “yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish”ni kiritish, shuningdek, “tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan” so‘zlarini “shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan” degan so‘zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

4. Do‘pposlash, sog‘liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish (Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasi ikkinchi qismi)

Bilamiz, Jinoyat kodeksining 126[1]-moddasi ikkinchi qismi Jinoyat kodeksining 109-moddasidan olingan. Jinoyat kodeksining 109-moddasi (“Qasddan badanga yengil shikast yetkazish”) birinchi qismida nazarda tutilgan sog‘liqning qisqa muddat (6 kungacha) yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-oktabrdagi 972-qonuniga asoslanib chiqarilgan[2].

Ya’ni, sog‘liqning 6 kungacha yomonlashuviga olib kelgan qasddan badanga yengil shikast yetkazish uchun faqat ma’muriy javobgarlik saqlab qolindi.

Lekin Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasining ikkinchi qismida Jinoyat kodeksi 109-moddasidan (“Qasddan badanga yengil shikast yetkazish”) farqli ravishda yuqoridagi harakatlarni xotin (er), sobiq xotin (sobiq er), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik saqlab qolindi.

Basharti, qonun chiqaruvchi rivojlanishning hozirgi bosqichida sog‘liqning 6 kungacha yomonlashuviga olib kelgan qasddan badanga yengil shikast yetkazish uchun jinoiy javobgarlikni belgilashning zarurati yo‘q deb topgan bo‘lsa, ushbu harakatlarni xotin (er), sobiq xotin (sobiq er), birga yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni ham bekor qilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasining birinchi qismida Jinoyat kodeksi 109-moddasidan (“Qasddan badanga yengil shikast yetkazish”) farqli ravishda “do‘pposlash” uchun ham javobgarlik bor.

Ta’kidlash lozimki, do‘pposlash jinoyatning obyektiv tomoni sifatida Jinoyat kodeksining 110-moddasi (“Qiynash”), 277-moddasi (“Bezorilik”), 235-moddasi (“Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash”) va 283-moddasi (“Badanga shikast yetkazish”) kabi jinoyatlarda ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Oliy sudi plenumining 2002-yil 14-iyundagi “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 9-qarorida “Urish-do‘pposlash deganda aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi[3]” deb bayon etilgan. Jinoyat kodeksi 110-moddasida[4] ham do‘pposlashning muttasil ravishda bo‘lishiga ishora qilingan.

Do‘pposlash badanga yengil shikast yetkazishga nisbatan alohida nazarda tutilganligi bejiz emas. Chunki Jinoyat kodeksi 109-moddasining birinchi qismida ham do‘pposlash yengil tan jarohati yetkazish usuli sifatida nazarda tutilmagan edi. Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasidagi badanga yengil shikast yetkazishga oid dispozitsiyaning Jinoyat kodeksi 109-moddasi bilan asosiy tafovutlaridan biri ham aynan shu masalada ko‘riladi.

Bu o‘rinda do‘pposlash agar muttasil ravishda amalga oshirilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksi 110-moddasi (“Qiynash”) bo‘yicha, bir marta

[2] ЎРҚ-972. 07.10.2024. Ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларнинг олдини олиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида.
[3] 9-қарор. 14.06.2002. Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида.
[4] 22.09.1994. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.



amalga oshirilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Fikrimizcha, agar do‘pposlash oilaviy zo‘ravonlikning obyektiv tomoniga kiritilgan ekan, uni muttasil sodir etish ham oilaviy zo‘ravonlik doirasiga kiritilsa, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Shunga ko‘ra, Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasining uchinchi qismida “muttasil do‘pposlash”ni oilaviy zo‘ravonlik shakli sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

5. Badanga yengil, o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda “tan jarohatlari yetkazish” oilaviy zo‘ravonlik shakli sifatida nazarda tutilgan bo‘lib, shu asosda Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasiga ham tan jarohati yetkazishga oid harakatlar obyektiv tomondan sodir etish usuli doirasiga kiritilgan.

Jinoyat kodeksining tan jarohatlari yetkazish to‘g‘risidagi qoidalariga muvofiq:

a) yengil shikast yetkazish – sog‘liqning qisqa vaqtda (6–21 kun) ko‘p bo‘lmagan muddatga yomonlashuvi yoki umumiy mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishi;

b) o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish – hayot uchun xavfli bo‘lmagan va og‘ir oqibatlarga olib kelmagan, lekin sog‘liqning uzoq vaqt (21 kun – 4 oy) davrda yomonlashuvi yoki umumiy mehnat qobiliyatining 10–33 foizga yo‘qolishi;

d) og‘ir shikast yetkazish – ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish, biron a’zoning ishdan chiqishi yoki uning funksiyalari tamoman yo‘qolishi, ruhiy holatning buzilishi yoki sog‘liqning boshqacha tarzda yomonlashuvi, umumiy mehnat qobiliyatining 33 foizidan kam bo‘lmagan qismining yo‘qolishi yoki homilaning tushishi yoki badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi.

Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasining tan jarohatlari yetkazishga oid normalari Jinoyat kodeksi 104 va 105-moddalaridan farq qiladi. Bu farq jabrlanuvchilarning shaxsga nisbatan qo‘llanishida ifoda topadi. Agar tan jarohatlari er-xotin, sobiq er-xotin, birgalikda yashayotgan shaxslar yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan sodir etilsa, Jinoyat kodeksi 126[1]-moddasiga asoslanadi. Boshqa holatlarda esa mazkur jinoyatlarni sodir etganlar Jinoyat kodeksi 104 va 105-moddalariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Zulxumor IBROXIMOVA,
yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi